2. Temirning kashf etilishi va jahon madaniyatini rivojlanishidagi ahamiyati.
3. So'nggi bronza davri va ilk temir davri yodgorliklari (Chust madaniyati. Elatan madaniyati. Burgulyuk madaniyati. Amirabod madaniyati. Kuchuktepa, Mirshodi makoni, Qiziltepa)

**Mavzu: Qadimgi davr xususiyatlari va madaniyati**

**Reja:**

1. Qadimgi davr madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Axmoniylar madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ta'siri.
3. Gretciya va Rim madaniyatining jahon madaniy taraqqiyotiga ta'siri.
4. Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, Xorazm, Farg'ona, Choch va Iloqda antik davr shahar va qishloqlari.
5. O'rta Osiyoning arxaik davr arxeologik yodgorliklari.
6. O'rta Osiyoda ilk davlatlar. Qadimgi Baqtriya va Xorazm yodgorliklari.

**Mavzu: O'rta asrlar davri xususiyatlari va yodgorliklari**

**Reja:**

1. Ilk o'rta asrlar davrida yuz bergan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlarning arxeologik yodgorliklarda aks etishi.
2. Ilk o'rta asrlarda yer egaligining vujudga kelishi.
3. Ilk o'rta asrlarda shahar hunarmandchiligi.
4. Rivojlangan o'rta asrlar davri shaharlarining shakllanishi va rivojlanishi.

**12 Mavzu: Қадимги Уструшона – Жиззах воҳаси археологик ёдгорликлари ва унинг ўрганилиши**

### 4.3. MODULLAR BO‘YICHA AMALIY MASHG‘ULOT MAVZULARI

| № | Amaliy mashg‘ulotlari mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1 | Rossiya arxeologiyasi. | 2 |
| 2 | Sharqiy va janubiy Osiyo arxeologiyasi | 2 |
| 3 | Arxeologik topilmalarning yoshini aniqlash uslublari | 2 |
| | **Jami** | **6** |

### 4.4. MODULLAR BO‘YICHA LABOROTORIYA MASHG‘ULOT MAVZULARI

| № | Laborotoriya mashg‘ulotlari mavzulari | Soat |
|---|---|---|
| 1 | **Tosh qurollarining ishlanish uslublari.** | 2 |
| 2 | **Arxeologik topilmalarning yoshini aniqlash uslublari** | 2 |
| 3 | **Sopol buyumlar va ularning ishlanish uslublari** | 2 |
| | **Jami** | **6** |

***Grafik organayzerlar***

Grafik organayzerlar ma’ruza, amaliy va mustaqil ta’lim mashg‘ulotlarida talabalar o‘quv materiallarini samarali o‘zlashtirishlari uchun joriy etiladi. Quyida ularning ba’zilari keltirilgan.

**1) BBB jadvali.** Barcha ma’ruza darslarida qo‘llaniladi. BBB usuli (“bilaman”, “bilishni xohlayman”, “bilib oldim”) orqali talaba o‘zini kuzatishi, o‘qituvchi esa darsga baho berishi mumkin. Talaba dars boshida mavzu bo‘yicha nimani bilishini (B1) va yana nimalarni bilishni xohlashini (B2) daftariga yozib qo‘yadi. Dars so‘ngida nimalarni bilib olganligini (B3) qayd qilib qo‘yadi.

**2) Insert usuli.** Bu usul matnni o‘zlashtirishda qo‘llaniladi. Talaba sahifa hoshiyasiga o‘z belgilarini qo‘yib ularga munosabat bildiradi. Masalan: “v” – zarur; “–“ - xato; “+” - yangi; “!” – e’tibor qiling; “x” - ortiqcha; “*” - ko‘chirish kerak; “?” – tushunarsiz va h.k.



***3) Klaster sxemasi***

Bu usul fikrni erkin bayon qilish uchun qo‘llaniladi. Masalan, talaba o‘tilgan mavzu bo‘yicha klaster tuzishi mumkin. O‘rtaga kalit so‘z, tarmoqlarga unga bog‘liq boshqa

atamalar yoziladi. Ular ham o'z navbatida tarmoqlarga ajralishi mumkin.

**Venn diagrammasi** O'rganilayotgan ob'ektlarni taqqoslash, o'xshash va farqli jihatlarini topish, tahlil qilish uchun qo'llaniladi. Diagrammadagi doirachalar alohida ob'ektni, kesishmalar esa ularning o'xshash va bog'liq jihatlarini bildiradi. Talabadan ob'ektlarning alohida (1-3), o'zaro bog'liq (4-6) va umumiy (7) jihatlarini yozma ifodalab berish talab etiladi.




**4) SWOT–tahlil.** Bu organayzer talabalarda tizimli fikrlash, taqqoslash, baholash, tahlil qilish, fikrni davom ettirish ko'nikmalarini rivojlantiradi. SWOT atamasi inglizcha so'zlarning qisqartmasi hisoblanadi: Strengths – ob'ektning kuchli jihatlari; Weakness – kuchsiz jihatlari; Opportunities – tashqi imkoniyatlari; Threats – tashqi xavf-xatarlari. Talaba yangi qatordan S, W, O, T harflarini yozib yoniga ob'ektning mos sifatlarini yozib chiqadi.

**5) "Baliq skeleti" sxemasi.** Bu organayzer tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Balik skeletining bosh qismiga – mavzu, yuqori qismiga –muammolar, pastki qismiga – tasdiqlovchi dalillar yoziladi.



**6) Aqliy hujum usuli.** Bu usul dars mavzusiga oid savolga javob topish maqsadida g'oyalarni jamlash va saralash uchun qo'llaniladi. Har bir talaba o'zining shaxsiy g'oyalarini ilgari suradi. Bosqichlari – muammoli vaziyat paydo qilish; echimni topish uchun g'oya, fikr berish; echimlar taqdimotini eshitish; echimlarni solishtirish va tanlash; xulosa qilish.

**7) Esse.** Bu mavzu bo'yicha cheklangan hajmda yoziladigan insho hisoblanadi. Esseda talaba o'quv materiali bo'yicha o'zining shaxsiy fikrini erkin ifoda etadi.

***Interfaol o'qitish usullari (Activity)***

Amaliy mashg'ulotlarda interfaol o'qitish usullari qo'llaniladi. Bu usullar talabalarda jamoada ishlash, kasbga oid mustaqil va tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Quyida fan xususiyatlariga xos ba'zi usullar bayon etilgan.

**1) «Tushunchalar tahlili» usuli**. Talabalar tushunchalarni dastlab

yakka tarzda va keyin jamoada muhokama qilishadi. O‘qituvchi jamoaning fikrini yo‘naltirib turadi va oxirida ekranga atamalarning izohini chiqaradi. Talabalar o‘z fikrlarini taqqoslashadi, baholashadi va bilimlarini mustahkamlashadi.

**2) «Zinama-zina» usuli**. Talabalar mavzu bo‘yicha yakka tarzda fikrini grafik ifoda etishadi, keyin guruhda muhokama etishadi. Guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi va grafik materiallar doskaga mantiqiy pog‘onalar tarzida ilib boriladi.

**3) "Charxpalak" usuli**. Kichik guruhlar o‘z tarqatma materiallaridagi vazifani bajarib, charxpalak aylanishi bo‘ylab bir- biriga uzatishadi, har bir guruh boshqalarning ishiga tuzatish kiritadi va oxirida o‘zlariga qaytib keladi. Guruhlar o‘z ishini tuzatishlar bilan takomillashtirgan holda taqdimot qilishadi.

**4) «Bumerang» usuli**. Talaba bajargan ishini avval o‘z kichik guruhida, keyin boshqa kichik guruhda muhokama qiladi, so‘ng yana o‘z guruhiga qaytib kelib umumlashtiradi. Oxirida guruhlar taqdimoti o‘tkaziladi.

**5) «Rezyume» usuli.** Kichik guruhlarda muammolar o‘rganilib, tahlil qilinadi va xulosa yozma ifoda etiladi. Taqdimotda xulosa ko‘rsatilmaydi, boshqa talabalarning taqdimotga nisbatan fikrlari hisobga olinib yangi xulosa shakllantiriladi va avvalgi yozma xulosa bilan taqqoslanadi.

**6) «Muammo» usuli**. Dastlab muammoli videolavha ko‘rsatiladi. Kichik guruhlar namoyish vaqtida muammolarni qayd qilib borishadi. Keyin ularning echimlarni o‘zaro almashishadi va tuzatish kiritishadi. Oxirida muammo bo‘yicha jamoaning xulosasi shakllantiriladi.

**7) «Labirint» usuli**. O‘qituvchi murakkab vaziyatni bayon qiladi va jamoa bo‘lib undan chiqish yo‘li topiladi. Keyin kichik guruhlarda boshqa muammoli vaziyatlar o‘rganiladi va taqdimot o‘tkaziladi.

**8) FSMU usuli**. Talabadan o‘z fikrini quyidagi tartibda ifodalash talab qilinadi: F - fikrini bayon qilish; S – fikriga sabab ko‘rsatish; M – sababni asoslovchi misol keltirish; U - fikrini umumlashtirish.

**9) «Muloqot» usuli**. Kichik guruhlarda alohida mavzular o‘rganiladi va turli materiallar (video, foto, sxema, ilmiy dalillar) tayyorlanadi. Keyin kichik guruhlar o‘rtasida muloqot bo‘lib o‘tadi. O‘qituvchi kichik guruhlarning fikrlarini maqsadli yo‘naltirib boradi va oxirida o‘z munosabatini bildiradi.

## IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

Mustaqil ta’limdan ko‘zlangan maqsad va vazifalar - bu talabalarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta’lim seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rishdan tashqari fan dasturida ko‘rsatilmagan, ammo fan bo‘yicha talabaning bilim doirasini

kengaytiruvchi qo‘shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o‘z ichiga oladi.

***Mustaqil ta’lim shakllari***

Talabalarning mustaqil ta’limi har bir modul bo‘yicha o‘qituvchi rahbarligida (O‘RTMI) va mustaqil tarzda (TMI) quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi.

***O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishi (O‘RTMI)***

Ushbu fanda me’yorlashtirilmaydigan O‘RTMI shakllari rejalashtirilgan bo‘lib, ular har bir amaliy mashg‘ulot bo‘yicha yakuniy hisobot shaklida qabul qilinadi. O‘RTMI amaliy mashg‘ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg‘ulotdan so‘ng masofaviy ta’lim platformasida O‘RTMI uchun o‘qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi.

Ushbu fanda masofaviy ta’lim platformasida quyidagi O‘RTMI shakllarini qo‘llash nazarda tutilgan:

1) Q/A (savollarga cheklangan hajmda javob yozish).
2) Chart (jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish).
3) Link (Internet-havolaga annotatsiya yozish).
4) Review (berilgan manbaga sharh yozish).
5) SWOT (muammoni SWOT-tahlil qilish).
6) Google Apps (Google ilovalarda guruh bo‘lib hujjat, jadval, prezentatsiya va testlar tayyorlash).
7) Interview (boshqalarning muammoga nisbatan fikrini o‘rganish).
8) LabReport (laboratoriya ishlari bo‘yicha hisobot tayyorlash)

***O‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ishlari hajmi***

| T.r | shakli Ama | liy mashg‘ulot mavzulari bo‘yicha O‘RTMI mazmuni | soat |
|---|---|---|---|
| 1. | Q/A | “Arxeologiya” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan savolga 5-6 bet hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va mavzuni ochib berishiga e’tiborga olinadi. | 2 |
| 2. | Link | Talaba “Arxeologik tadqiqot uslubiyati” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi. | 2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 3. | Chart | “Ibtidoiy diniy e’tiqodning arxeologik manbalardagi izlari” mavzusi bo‘yicha variantlardagi jadvallarni 100 gacha so‘z ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda so‘zlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bog‘lovchi so‘z va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, o‘zgarish dinamikasi va izohning to‘g‘riligi hamda to‘liqligi inobatga olinadi. | 2 |
| | 4. | Link | Talaba “So’nggi bronza davri yodgorliklari” mavzusi bo‘yicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning to‘g‘ri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi. | 2 |
| | 5. | Q/A | 1. “Teshiktosh yodgorligi” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e’tiborga olinadi. | 2 |
| | 6. | In terview | Talaba “Bronza davri yodgorliklari” mavzusi bo‘yicha o‘zgalarning shu muammoga nisbatan fikrlarini o‘rganadi va audio, video yozuvlar shaklida taqdim etadi. Talabaning ishini baholashda uning vaqt reglamentiga rioya qilganligi, suhbatdoshini to‘g‘ri tanlashi, savollarni suhbatdoshining javobidan kelib chiqib berishi va uni yo‘naltirishi, original javob olishi, tashqi ko‘rinish va fon, mulozamat elementlari inobatga olinadi. | 2 |
| | 7. | Q/A | “Arxeologik ekspedisiyasi va uning faoliyati” mavzusi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan variantlardagi savollarga 50-70 so‘z hajmida javob yoziladi. Javobni baholashda javobning to‘liqligi va so‘zlar soni e’tiborga olinadi. | 2 |
| | 8. | Review | “O’zbekiston hududidagi ilk shaharlar” mavzusi bo‘yicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi. | 2 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 9. | Review | "Qoya tosh suratlarining ishlanish uslublari" mavzusi boʻyicha berilgan manba belgilangan shaklda va hajmda sharhlanadi. | 2 |
| | 10. | Link | Talaba "Davrlashtirish masalalari" mavzusi boʻyicha berilgan variantlardagi havolalarni ochib ularga fikr bildiradi. Javobni baholashda talabaning toʻgʻri javob berishi va bayon qilishi inobatga olinadi. | 2 |
| | 11. | SWOT | Talaba "Hozirgi bosqichda arxeologiya fani oldida turgan vazifalar va muammolar" mavzusi boʻyicha SWOT-tahlilni amalga oshiradi. | 2 |
| | 12. | Google Apps | Talabalar "Ilk temir davri yodgorliklari" mavzusi boʻyicha hamkorlikda Google-taqdimot tayyorlashadi. | 2 |
| | 13. | Chart | "Arxeologik madaniy qatlam" mavzusi boʻyicha variantlardagi jadvallarni 200 gacha soʻz ishlatib izohlash talab etiladi. Javobni baholashda soʻzlar soni, atamalardan foydalanish, gapning tuzilishi, bogʻlovchi soʻz va iboralardan foydalanish, taqqoslashlar, oʻzgarish dinamikasi va izohning toʻgʻriligi hamda toʻliqligi inobatga olinadi. | 2 |
| | 14. | Interview | Talaba "Mezolit davri yodgorliklari" mavzusi boʻyicha oʻzgalarning shu maʼruzaga nisbatan fikrlarini oʻrganadi va audio, video yozuvlar shaklida taqdim etadi. Talabaning ishini baholashda uning vaqt reglamentiga rioya qilganligi, suhbatdoshini toʻgʻri tanlashi, savollarni suhbatdoshining javobidan kelib chiqib berishi va uni yoʻnaltirishi, original javob olishi, tashqi koʻrinish va fon, mulozamat elementlari inobatga olinadi. | 2 |
| | 15. | SWOT | Talaba "Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida yangilanayotgan Oʻzbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" mavzusi boʻyicha SWOT-tahlilni amalga oshiradi. | 2 |
| | | | **Jami** | **30** |
| | **Talabaning mustaqil ishlari (TMI)** | | | |

Ushbu mustaqil ish shakllariga oʻqituvchi tomonidan hech qanday koʻrsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabaning oʻzi qiziqishlaridan kelib chiqib ularni amalga oshiradi. Fanni oʻqitishda quyidagi TMI shakllari qoʻllaniladi.

***Talabaning mustaqil ish mashgʻulotlari hajmi***

| T. r. | TMI shakllari va mazmuni soat | soat |
|---|---|---|
| 1. | **Research**. Talabalar Internetdan va boshqa manbalardan mustaqil ravishda maʼlumot izlashadi va tarqatma materiallarni oʻrganishadi. Har bir maʼruza boʻyicha kamida 2 soat shugʻullanish maqsadga muvofiq. | 10 |
| 2. | **Forum**. Talabalar fan mashgʻulotlari boʻyicha topshiriqlarni bajarish mobaynida masofaviy taʼlim platformasida oʻzaro muloqot qilishadi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy taʼlim platformasida qayd qilib boriladi. | 6 |
| 3. | **FAQ** (koʻp beriladigan savollar forumi). Talaba oʻz muammosi boʻyicha maslahat olish uchun masofaviy taʼlim platformasida maslahat tizimiga (glossariyga) yoki oʻqituvchiga murojaat qiladi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy taʼlim platformasida qayd qilib boriladi. | 4 |
| 4. | **Test**. Talaba har bir modul yakunida oʻz bilimlarini mustahkamlash uchun masofaviy taʼlim platformasidagi oʻrgatuvchi testlarni ishlaydi. Bu jarayon uchun vaqt sarfi masofaviy taʼlim platformasida qayd qilib boriladi. | 10 |
| | **Jami** | **30** |

**3.**

TALABALAR BILIMINI BAHOLASH

**Kirish nazorati.** Bu nazorat turi modulga kirish maqsadida anketa-soʻrovnomasi shaklida oʻtkaziladi. Bunda talabalarga fanning kelajakdagi talabalar bilan faoliyatida tutgan oʻrni, ahamiyati, fan mazmuni, fanni oʻqitish usullariga oid soʻrovlar oʻtkaziladi, talabalarning fanni oʻrganish uchun zarur boʻlgan dastlabki bilimlari aniqlanadi, taklif va tavsiyalar olinadi. Ushbu soʻrovlar natijasi chuqur oʻrganilib fanni oʻqitishni tashkil qilish jarayonida zarur oʻzgartirishlar kiritiladi.

**Oraliq nazoratlar.** Oraliq nazoratlar semestr davomida 2 marta oʻquv mashgʻulotlari davomida oʻtkaziladi va 1-2 va 3-5 modullar boʻyicha talabalarning bajargan ishlari portfolio shaklida jamlanib tahlil qilib baholanadi.

Jami 14 ta amaliy (Q/A, Chart, Link, Review, SWOT, Google Apps, Interview) va va 5 ta laboratoriya mashgʻulotining (LabReport) har boʻyicha oʻzlashtirish natijalari 5 ballik tizimda baholanadi va jami 95 ball toʻplanadi,

talabaning darslardagi faolligi va ishtirokiga umumiy 5 ball qo‘yiladi. Umumiy hisobda oraliq nazorat topshiriqlari 100 ballik tizimda baholanadi.

Talabaning oraliq nazorat bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari quyidagi jadval asosida kredit ballariga va harfli tizimga o‘giriladi.

| **Harfli tizimdagi baho** | **Ballarning raqamli ekvivalenti** | **Foiz ko‘rsatkichi** | **An’anaviy usuldagi baho** |
|---|---|---|---|
| A | 4,0 | 95-100 | A’lo |
| A– | 3,67 | 90-94 | |
| V+ | 3,33 | 85-89 | YAxshi |
| V | 3,0 | 80-84 | |
| V– | 2,67 | 75-79 | |
| S+ | 2,33 | 70-74 | |
| S | 2,0 | 65-69 | Qoniqarli |
| S– | 1,67 | 60-64 | |
| D+ | 1.33 | 55-59 | Qoniqarsiz |
| D | 1,0 | 50-54 | |
| F | 0 | 0-49 | |

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug‘iga ilova qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish baholash tizimi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq oraliq nazoratda fan bo‘yicha A-S darajasiga erishgan talabalar yakuniy nazoratga qo‘yiladi.

***Yakuniy nazorat (chiqish nazorati).***

Yakuniy nazorat taqdimot (yoki hamkorlikdagi taqdimot) shaklida o‘tkaziladi. Talabaning yakuniy nazoratdagi o‘zlashtirishi 100 ballik tizimda baholanadi va yuqoridagi jadval asosida uning baholash ko‘rsatkichi aniqlanadi. Yakuniy nazorat bahosi fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini belgilaydi.

**BAHOLASH MEZONLARI**

**“A’lo”** baholash bo‘yicha talablar ( A – A-; 90-100):

1. Fan dasturi, mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni to‘liq o‘zlashtirganligi;
2. Berilgan topshiriqlarni belgilangan vaqtda aniq, to‘liq va to‘g‘ri bajarilganligi;
3. Berilgan vazifani mustaqil ravishda bajarish iqtidorini namoyon etilganligi;
4. Amaliy mashg‘ulotlarda bexato natijalar olinib, qo‘lga kiritilgan natijalardan to‘g‘ri xulosa chiqarilganligi;
5. Matematik qayta ishlash usullarini mukammal bilishligi;
6. Berilgan topshiriqlar hisobotini tug‘ri va puxta shakllantirilganligi;
7. Seminar mavzularining maqsad va mazmunini atroflicha yoritilganligi;
8. Matnlar bayonida ilmiylik va mantiqiylik saqlanib ilmiy xatolik va mantiqiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilmaganligi;

| | |
|---|---|
| | 9. Berilgan mavzu doirasida mustaqil fikrlash qobiliyatini namoyon etilganligi;<br>10. Fan yoki mavzular materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega ekanligi.<br>**“Yaxshi”** baholash bo‘yicha talablar ( V+ – S+; 70-89):<br>1. Fan bo‘yicha mashg‘ulotlar mavzularining maqsad va mazmunini to‘g‘ri tushinib etganligi;<br>2. Berilgan topshiriqlarning nazariy va amaliy ahamiyatini tushunganligi;<br>3. Mashg‘ulot vositalaridan to‘g‘ri foydalanishni bilish;<br>4. Olingan natijalarni matematik qayta ishlashni bilish;<br>5. Mavzu materialining amaliy ahamiyatini tushunganlik;<br>6. Berilgan topshiriqlarni o‘quv dasturi doriasida bajarilganligi;<br>7. Amaliy mashg‘ulotlar (laboratoriya ishlari) yuzasidan xisobotlarni shakllantira olganligi;<br>8. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha konspektni puxta shakllantirilganligi.<br>**“Qoniqarli”** baholash bo‘yicha talablar:<br>1. Fanning mavzulari va topshiriqlarning maqsad va mazmuni xaqida umumiy tasavvurga egalik;<br>2. Mashg‘ulotlar jarayonida asbob-uskunalardan mustaqil foydalanish mahoratiga ega bo‘lmay, chetdan bo‘ladigan har xil yordamlarga muxtojlikning mavjudligi;<br>3. Berilgan topshiriqlar bo‘yicha natijalarni mustaqil qayta ishlab chiqish ko‘nikmasiga ega emaslik;<br>4. Topshiriqlar bo‘yicha hisobotlarda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yganlik;<br>5. Tayyorlangan matnlarning puxta shakllantirilmaganligi;<br>6. Matnlar bayonida masalalar tor doirada yoritilib, ayrim chalkashliklarga yo‘l qo‘yilganlik.<br><br>**“Qoniqarsiz**” baholash bo‘yicha talablar:<br>1. Fanning mavzulari va topshiriqlarining maqsad va mazmuni haqida yuzaki tasavvurga ega;<br>2. Topshiriqlar hajmining 50 foizi atrofidagi qismi bajarilmagan holda;<br>3.Topshiriqlar bo‘yicha olingan natijalarda qo‘pol xatoliklarning mavjudligi;<br>4.Qonun-qoida, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlarda noaniqlikka yo‘l qo‘yilganda;<br>5.Hisobotlar bayonida orfografik va grammatik xatoliklarga yo‘l qo‘yilganda;<br>6.Topshiriqlar bo‘yicha javoblarda mujmallik, noaniqlik va mantiqiy chalkashliklar qayd etilganda;<br>7.Ilmiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilganda.<br><br>**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>**Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:** |

| | |
|---|---|
| | • qadimiy sivilizasiyalarining rivojlanishi, eng qadimgi tarixni davrlashtirish masalalari, kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, odamzodning dastlabki mehnat qurollari, mashg‘ulotlari, makonlari, uning qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixi hamda shu davrlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayoti xaqida ***bilimga;***<br>• talaba mustaqil ish, amaliy mashg’ulot va arxeologik amaliyot jarayonida arxeologiya yodgorliklarini tashqi ko‘rinishiga qarab, ularning turlari va tiplarini aniqlay olish ***ko’nikmaga;***<br>har bir davrning o‘ziga xos yodgorliklarini turini va ularning tabiiy-geografik joylashish o‘rinlarini, ulardan qanday qilib mavzuga xos tarixiy informaciyalar olish va o‘z pedagogik faoliyatida ulardan samarali foydalana bilish ***malakasiga ega bo‘lishi kerak.*** |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma’ruzalar;<br>• interfaol keyslar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha topshiriqni bajarish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Sagdullayev. A. Qadimgi O‘rta Osiyo tarixi. – T., 2004.<br>2. Egamberdieva N. Arxeologiya (o`quv qo`llanma). – T.: Fan va texnologiya, 2011.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar**<br>3. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon buladi. - T.: O‘zbekiston, 2019.<br>4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.<br>5. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.<br>6. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. - 48 b<br>7. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – |

|  |  |
|---|---|
|  | T.: O‘zbekiston, 2017. - 104 b.<br>8. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.<br>9. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild, - T.: O‘zbekiston, 2018.<br>10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O‘zbekiston, 2011.<br>11. Karimov I.A. Tarixiy xotirisiz kelajak yo‘q. –T.: Sharq, 1998.<br>12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. www.lex.uz.<br>13. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. ––Toshkent, 2001.<br>14. Asqarov A. O‘zbek xalqi etnogenez va etnik tarixining ba’zi b nazariy va ilmiy metodologik asoslari //O‘zbekiston tarixi. 2002. № 4 – B. 54-60.<br>15. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. –T.: Fan, 2001<br>16. Akademik A.Asqarovning ilmiy ijodi va pedagogik faoliyati. –T., 2003<br>17. Allaberganov N. Qadimiy mudofaa qo‘rg‘onlari. –T., 2006.<br>18. Jobborov I. Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasi. – T., 1999.<br>19. Bo‘riyev O. Manbalarda Shaxrisabz tavsifi. – Qarshi, 2004.<br>20. Maxmudov Q. Qadimgi Turkiston. – T., 2011.<br>21. Pidayev Sh.R. Qadimiy Termiz. –Tashkent, 2001.<br>22. Qayumov A., Akademik Axmadali Asqarov. - T., 2003.<br>23. Qadimgi O‘zbekistonda buddaviylik va buddaviy meros. –T., 2011.<br>24. Egamberdiyeva N. Arxeologiya ( metodik qo’llanma). –Tashkent, 2008.<br>25. Xodjaniyozov G‘. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. –T., 2007<br>26. Eshov B. Qadimgi O‘rta Osiyo shaharlari tarixi. – T., 2006.<br><br>**Axborot manbaalari**<br>1. www. pedagog. uz<br>2. www. Ziyonet. uz<br>3. www.history.ru<br>4. www.archaelogy.ru<br>5. www.archaelogy.com |
| **7.** | Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 202__ yil “___”________ dagi ____ -sonli bayoonnomasi bilan ma’qullangan. |

| | |
|---|---|
| | O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 202__ yil “___” _____dagi ______ - sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan. |